



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti

TARIX FAKULTETI



# TARIX va JAMIYAT

## JOURNAL 2023



**№5**

**HISTORY AND SOCIETY**  
**ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО**  
общественный электронный  
**ЖУРНАЛ**



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

---

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

---

**Bosh muharrir:** Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

**Mas'ul kotib:** Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:** Axmurodov D.Q

---

## ABDULLAXON II NING JIZZAX TARIXIDA TUTGAN O'RNI

**R.R.Nurqulova** - Jizzax davlat pedagogika universiteti, tarix fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrasining dotsenti, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi.

**Sharofov Sirojiddin** – Tarix yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Shayboniyxon vafotidan keyin mamlakatda vaziyat, Abdullaxon II ning hukmronligi davrida Buxoro xonligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalish, uning mintaqani birlashtirish uchun kurashlari, bu davrda bunyod etilgan sug'orish inshootlari, me'moriy obidalar, ichki va tashqi savdoning rivojlanishi hamda ilm-fan ravnaqi yoritilgan. Abdullaxon II ning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rini yoritishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Shayboniyxon, Kuchkinchixon, Abdulazizxon, Iskandarxon, Abdullaxon II, Xo'ja Islom, Markaziy hokimiyat, Sug'orish inshootlari, me'moriy obidalar, Ichki va tashqi savdo, diplomatik aloqalar, hunarmandchilik, ilm-fan.

**Аннотация:** В данной научной статье рассматривается положение в стране после смерти Шайбани-хана, политический, экономический и культурный подъем Бухарского ханства в период правления Абдулла-хана II, его борьба за объединение края, ирригационные сооружения. освещены построенные в этот период архитектурные памятники, развитие внутренней и внешней торговли и прогресс науки. Сделана попытка осветить место Абдулла-хана II в истории узбекской государственности.

**Ключевые слова:** Шайбани-хан, Кучкинчи-хан, Абдулазиз-хан, Искандар-хан, Абдулла-хан II, Ходжа Ислам, Центральная власть, Ирригационные сооружения, памятники архитектуры, Внутренняя и внешняя торговля, дипломатические отношения, ремесла, наука.

**Abstract:** In this scientific article, the situation in the country after the death of Shaibani Khan, the political, economic and cultural rise of the Bukhara Khanate during the reign of Abdullah Khan II, his struggle for the unification of the region, the irrigation facilities built during this period, architectural monuments, internal and external trade development and progress of science are highlighted. An attempt was made to shed light on the place of Abdullah Khan II in the history of Uzbek statehood.

**Key words:** Shaibani Khan, Kuchkinchi Khan, Abdulaziz Khan, Iskandar Khan, Abdullah Khan II, Khoja Islam, Central Power, Irrigation facilities, architectural monuments, Domestic and foreign trade, diplomatic relations, crafts, science.

Milliy davlatchiligimiz tarixida qariyb 100 yil hukmronlik qilgan shayboniylar sulolasining oʻrni katta. Shayboniylar sulolasi hukmronligining qariyb yarmi shayboniyzoda Abdullaxon II davriga toʻgʻri keladi.

Abdullaxon II Karmana va Miyonqol hukmdori boʻlgan Iskandarxonning oʻgʻli edi. U yoshligidan boshlab noyob isteʼdod sohibi boʻlib voyaga yetdi.

Tarixchi Hofiz al-Buxoriy yozganidek: Abdullaxon II “... oʻq uzish, Kamon tortish, tigʻ va nayza urish sirlarini bilishda yuz tahsin, ming ofarin bilan oʻsha zamondagi yetuk sultonlardan oʻtib ketgan”<sup>1</sup> edi. Abdullaxon II diniy sohada ham “Qurʻoni Karimni tafsif qilishda, Hadisi Sharifni tahlil va talqin qilishda, din peshvolarining tahsinu tan olishlariga sazovor boʻlgan edi.”<sup>2</sup>

Koʻrinadiki, Abdullaxon II diniy va dunyoviy ilmlarni egallagan, harbiy sohaning mohir bilimdoni edi.

Ana shunday noyob isteʼdodu-iqtidor sohibi boʻlgan Abdullaxon II ning hayoti va hukmronligi davri ogʻir vaziyatda oʻtdi.

XVI asrning 40 yillarida shayboniyzodalar oʻrtasida shaharlar va hududlar uchun oʻzaro kurashlar avj olib kedi. Uning ustiga oʻzboshimcha fidoiylarning boshboshdoqlik harakatlarining avj olishi ham mamlakatda feodal tarqoqlikni kuchaytirdi. Bunday ogʻir vaziyat Ubaydulloxon vafotidan keyin yanada kuchayib ketdi. Yurtdagi notinchlik mamlakat hayotining hamma sohalariga ogʻir taʼsir koʻrsatgan edi.

Bu haqda “Abdullanoma” asarida: “oʻsha vaqtda har tarfdan teskari shamol esardi. Har burchakdan fitna gardi osmonga koʻtarilardi. Sogʻu-salomatlik, Anqodek manfiylik pardasi ostiga yashiringan edi. Tinchlik va hotirjamlik kibriti axmar va ahlu hunarmandning rivojkoridek koʻrinmay ketgan edi. Xaloyiq tanglikdan hayron boʻlib, fuqaro burchak-burchakda sargardon edi”<sup>3</sup> – deb tasvirlab beriladi.

Bunday ogʻir vaziyat mamlakat hayotini izdan chiqarib, aholining barcha tabaqalarini ogʻir ahvolga solib qoʻygan edi. Xullas, elu-yurt shayboniy sultonlarning oʻzaro kurashlariga barham beradigan, mamlakatda tinchlik va adolat oʻrnatadigan, mamlakat hududlarini yagona hokimiyat, yagona poytaxt atrofida

<sup>1</sup> H.T. al-Buxoriy. Abdullanoma. Birinchi kitob. Toshkent. Sharq. 1999 y., 93-bet.

<sup>2</sup> Ibrohimov A. Ruhii oziq mahzoni. T., Yangi asr avlodi. 1999, 311-bet.

<sup>3</sup> Abdullanoma. Birinchi kitob. 19-bet.



birlashtirishga qodir bo'lgan qattiqqo'l va tartibli hukmdorga muhtoj edi. Bu tarixiy va hayotiy ehtiyoj tarix sahnasiga Abdullaxon II ni olib chiqdi. Abdullaxon II garchi 1583 yili rasmiy xon deb e'lon qilingan bo'lsa-da, amalda 1557 yildan boshlab siyosiy hokimiyat jilovi uning qo'lida edi. Abdullaxon II rasmiy xon sifatida faqat 1583 yil ya'ni otasi Iskandarxon vafotidan keyin oliy taxtga o'tirdi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, dastlab shayboniylar davrida oliy hukmdorning sulolaning eng yoshi ulug'iga o'tish qoidasiga amal qilinar edi. Abdullaxon II davriga kelib esa bu odat o'zgarib, rasmiy hokimiyat Iskandarxondan o'g'liga o'tdi. 1583 yil yangi xonni taxtga o'tkazish marosimi o'tkazildi va u oliy hukmdor deb e'lon qilindi. Abdullaxon II ning nomi juma nomozida xutbada o'qilib, nomidan tanga pullar zarb etildi.

Ta'kidlashimiz lozimki, o'sha davrda Buxoroda yirik din peshvolari jo'ybor xo'jalarining mavqei kuchli edi.

Abdullaxon II ga ham taxtni egallashda va mamlakat boshqaruvida juybor xo'jalaridan Muhammad Islomning yordami va qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. U otasi Iskandarxon singanri Muhammad Islomning muridi edi.

Abdullaxon II o'z piringing mamlakatdagi katta nufuzi, mavqeini hisobga olib "... uning homiyligini rag'bat bilan qabul qilib, itoat bilan boshini bo'ysunish xalqasiga kiritdi va uning muvofiq ko'rgan ishdan tashqari chiqmadi"<sup>4</sup>, xonning doimo unga ixlosi baland, hurmati katta edi. Abdullaxon barcha masalalarda jo'yboriy Muhammad Islomning maslahatlariga quloq solib, uni so'zsiz bajarar edi.

Abdullaxon II Muhammad Islomga ulug' bobolari "Imom Abu bakr Ahmad va Xo'ja Abu bakr Sa'dning mozorlarini ta'mirlash va uning yaqinida machit, madrasa, xonaqoh, saroy va chorbog' qurish to'g'risida farmon berdi.

"Abdullanoma" asarida aytilganidek, bu yerda o'n yil mobaynida dono me'morlar va zabardast binokorlar jannatga o'xshagan binolarni qurdilar."<sup>5</sup>

Buxoro xoni Abdullaxon II o'zining butun faoliyatini mamlakatda tinchlik, osoyishtalik o'rnatishga, viloyatlar hukmdorlarining siyosiy ayirmachiligiga barham berishga, bo'lishib ketgan mamlakat va mintaqani birlashtirishga, markaziy hokimiyatni mustahkamlash, mintaqaning barcha hududlarini birlashtirish, hunarmandchilik va dehqonchilikni rivojlantirish, ichki va tashqi savdoga keng yo'l ochish, shahar hayotini jonlantirish, ilm-fan va san'at rivojiga muhim e'tibor berish, xonlik hududida ulkan bunyodkorlik va sug'orish ishlarini jadal yuksaltirish kabi maqsadlarini amalga oshirishga bag'ishladi.

---

<sup>4</sup> O'sha asar. 75-bet.

<sup>5</sup> H.T. al-Buxoriy. Abdullanoma. Birinchi kitob. Toshkent. Sharq. 1999 y., 57-bet.

Abdullaxon II mamlakat va mintaqani birlashtirish maqsadini amalga oshirishda ko‘p marotaba urushlar olab borishga majbur bo‘ldi. Ayniqsa, Abdullaxon II ning Navro‘z Ahmadxonning farzandlari darvishxon va Boboxon Sulton bo‘lgan janglari juda shiddatli bo‘ldi. Boboxon Sulton Samarqand, Darvishxon esa Toshkent hokimlari edilar.

Xususan 1557 yilning aprelida Ilon o‘tti soyining Jizzax tomonida bir tomondan Turkmaniston, Toshkent, Andijon va Xo‘janddan to‘plangan qo‘shinlar Davrishon boshchiligida, ikkinchi tarafdin esa Samarqand hukmdori Bobo Sultonning ko‘p sonli qo‘shinlari bilan bo‘lgan jangda Abdullaxon II g‘alaba qozondi. Bu g‘alaba haqida H.T. al-Buxoriy “Abdullanoma” asarida: “O‘sha kuni a‘lo hazratga Abdullaxonga shunday g‘alaba yuz ko‘rsatdiki, bunday g‘alaba o‘tgan hoqon va sultonlarning birortasiga nasib qilmagan edi”<sup>6</sup> – deb yozadi. Tarixiy ahamiyati jihatidan erishilgan ushbu g‘alaba tarixda qolishiga har jihatdan haqli. Ammo Boboxon Sulton va Darvishxonlar bu mag‘lubiyatdan xulosa chiqarmadilar.

Ular katta tayyorgarlik va ko‘p sonli qo‘shinlari bilan 1572 yilda Samarqandni qaytarib olish maqsadida yana bostirib keldilar.

Iste‘dodli mohir sarkarda Abdullaxon II hozirgi G‘allaorol yaqinidagi Ko‘kgumbaz qishlog‘i yaqinda bo‘lgan jangda ularning to‘rt yuz kishilik qo‘shiniga qarshi atigi o‘ttiz ming qo‘shini bilan jangga kirdi va ularni tor-mor keltirdi.

Abdullaxon II o‘zining g‘alabasi haqida Ilon o‘ttidagi Temur darvozaning chap tomonida Mirzo Ulug‘bekning xotira yozuvi yoniga xotira yozuvi yozdirdi. Shuni ta‘kidlashimiz joizki, shayboniyzodalar har bir jangda mag‘lubiyatga uchrasalarda<sup>7</sup>, qozoq dashtlariga qochib, yangi kuch to‘plab, yana bosqinchilik, tilanchilik hujumlarini davom ettirar edilar.

Ayniqsa, 1578-1581 yillarda yuz bergan to‘qnashuvlar og‘ir bo‘ldi. 1581 yilning fevral oyida Samarqandgacha talonchilik qilib kelgan Bo‘zokur Sulton va Muzaffar Sultonlar Samarqanddan Miyonqongacha borib, so‘ngra Baxmalning Novqa qishlog‘ida chodir tikadilar. Samarqandni olish qo‘llaridan kelagach, ular “Dizak qal‘asi atrofiga kelib, kechasi xalq g‘aflatda yotganida hamma tarafdin oldinga yurib, qal‘ani egallaydilar... Bedodlik yo‘lini tutib, xalqqa xoxlaganlaricha zulm qildilar, qatli omga bordilar, devorlarni buzib, ko‘p asboblarni olib, qaytib ketdilar.”

Biroq ular Jizzax qal‘asini vayronaga aylantirgan edilar.

Shuning uchun Abdullaxon II Jizzax qal‘asini tiklashga kirishdi.

---

<sup>6</sup> O‘sha asar. 172-bet.

<sup>7</sup> Abdullanoma. Ikkinchi kitob. 46-bet

Abdullaxon II Toshkent va Turkistondan qaytishda Jizzaxda to‘htab, “o‘sha ko‘ngil ochuvchi sahroda bir necha kun to‘htadi. Dizak qal‘asini Bo‘zaxo‘r Sulton buzgan edi, hoqon arkoni davlati va hazratning a‘yonlari hamda boshqalar bilan birlikda tuzatishni buyurdi.”<sup>8</sup> Shunday qilib, Bo‘zaxo‘r Sulton vayron qilgan Jizzax qal‘asi oradan uch oy o‘tganidan so‘ng Abdullaxon tomonidan tiklandi.

Abdullaxon II mintaqani yagona markazga birlashtirish maqsadida 1573 yilda Farg‘onani, 1574 yilda Shahrisabz, 1578 yilda Samarqand, Qarshi, Hisor viloyatlarini, 1582 yilda Toshkent, Shoxruhiya, Sayrash, Ohangoron, 1583 yilda esa Balx, 1584 yilda Badaxshon, 1588 yilda Hirot o‘z qo‘l ostida birlashtirdi.

Xullas, Abdullaxonning sa‘y-harakatlari bilan butun Turkiston mamlakat yagona poytaxt atrofida birlashdi Abdullaxon II mamlakatni birlashtirish uchun kurash olib borish bilan birga markaziy hokimiyatni mustahkamlashga, mamlakat boshqaruvi katta e‘tibor bo‘ldi. Abdullaxon Amir Temurning davlat boshqaruvida kadrlar tanlash to‘g‘risidagi qoidalariga amal qildi. U viloyatlarga boshshliqlar tayinlar ekan ularga “... o‘zingizni zohir va botinlaringizni adolat o‘rnatish hamda xalq osoyishi bilan bezating, raiyatni rioya qilish v ularga muruvvatlar ko‘rsatish bilan mamnun qiling”<sup>9</sup> – deb nasihat qiladi.

Abdullaxon II davlat boshqaruvida mamlakatda katta obro‘ga ega bo‘lgan jo‘ybor xo‘jalariga suyandi.

U mamlakat obodonchiligiga katta e‘tibor berdi. Abdullaxon II davrida mamlakat iqtisodini sug‘orma dehqonchilik asosida rivojlantirish maqsadida mamlakatning deyarli barcha katta – kichik daryolari va soylaridan dehqonchilikni rivojlantirish uchun imkoni boricha o‘rinli va unumli foydalanildi. Chunonchi, 1568 yilda Murg‘ob daryosidan katta kanal qazdirib, Mari shahri atrofidagi cho‘l va biyobonlar suv olib borilib, u yerlarga “jon” ato etildi.

Abdullaxon II davrida Tuyatortar kanalining barpo etilishi natijasida Jizzax vohasining Baxmal, G‘allaorol, Forish tumani hududlari suv bilan ta‘minlanib, bu yerlarda dehqonchilikni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shuningdek, Forish tumanidagi “Abdulla Xon bandi”ning barpo etilishi ham Abdullaxon II tashabbusi bilan bog‘liq. “Har ko‘klamda o‘sha darada ko‘p sel to‘planib, lekin uning suvi ekinga yetishmas edi. Shuning uchun buyurdi: Ahmadali otaliq Nayman o‘sha darada Somon yo‘li shaklida bir to‘g‘on qursin, toki dehqonlar o‘sha joyda to‘plangan suvni bo‘lishib, ekinlarni sug‘orsinlar”<sup>10</sup> Ko‘rinadiki, Abdullaxon II Jizzax vohasiga muhim e‘tibor bergan. Voha shahar va qishloqlarining obod bo‘lishida, sug‘orish inshootlarining qurilishida,

<sup>8</sup> Abdullanoma. Ikkinchi kitob. 2010. 48-bet.

<sup>9</sup> O‘sha asar. Birinchi kitob. 172-bet.

<sup>10</sup> Abdullanoma. Ikkinchi kitob. 109-110-betlar.

dehqonchilikning rivojlanishida Abdullaxon II xizmati katta. Vohada ko'pgina tarixiy joylar Abdullaxon II ning nomi bilan bog'liq. Vohadagi ko'pgina so'lim joylarda Abdullaxon II hordiq chiqarib, ov qilib, janglar oldidan harbiy mashqlar o'tkazgan.

Abdullaxon II hukmronligi yillarida mamlakatning barcha hududlarida sug'orish inshootlarining qurilishi, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga va shu asosda mamlakat iqtisodining yuksalishga katta ta'sir qildi.

Mamlakatda tinchlik va osoyishtalikning o'rnatilishi, mamlakat iqtisodining ko'tarilishi, shahar hayotining jonlanish, ilm-fan, adabiyot, san'at va boshqa sohaolarning yuksalishga olib keldi. Bu davrda Buxoro islom olamining yirik markazlaridan biriga aylandi.

Abdullaxonning boy kutubxonasi bo'lib, o'sha zamon musulmon sharqidagi noyob kitob xazinalaridan biri edi.

Abdullaxon II ham temuriylar kabi bunyodkor hukmdor edi. U mamlakat poytaxti Buxoro, Toshkent, Balx kabi shaharlarda ko'plab me'moriy obidalar qurdirdi.

Uning hukmronligi yillarida Buxoro xonligida ichki va tashqi savdo rivojlandi. Xonlikning xalqaro nufuzi oshdi.

Muxtasar qilib aytganimizda, shayboniyzoda Abdullaxon II siyosiy tarqoqlikka qarshi kurash olib borib, mamlakatda nisbatan tinchlik va osoyishtalik o'rnatib, Buxoro xonligini markazlashgan davlatga aylantirish uchun kurash olib bordi.

Yozuvchi Abduqahhor Ibrohimov o'zining "Bizkim o'zbeklar" kitobida yozganidek, "Butun Turkiston mamlakatini yagona tug', yagona poytaxt atrofida birlashtira olish sharafi va baxti Amir Temur bobomizdan keyin faqat Abdullaxon II ga nasib etdi."<sup>11</sup> Bu buyuk xizmati bilan Abdullaxon II o'zbek milliy davlatchiligi tarixida munosib o'rin egalladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Ahmedov B.A. Tarixdan saboqlar. T. "O'qituvchi", 1994.
2. Абдураимов М.А. Очерк аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI в первая половина XIX века. Ташкент, 1966.
3. Boboev H. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Fan", 2004.
4. Buxoro sharq durdonasi. T. "Sharq", 1997.
5. Buxoro tarixi. Mualliflar guruhi. T. "Fan", 1974.
6. Buxoro tarixi sahifalari. Buxoro. 1998.

---

<sup>11</sup> Ibrohimov A. Bizkim o'zbeklar. T.: "Sharq", 1999, 99-bet.



7. Vamberi H. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. Toshkent. 1991.
8. Ibrohimov A. Ruhiy oziq makzani. T. “Yangi asr avlodi”. 2009.
9. Ibrohiov A. Bizkim o‘zbeklar. T. “Sharq”, 1999.
10. Nosirov U.N. Jizzaxdan aytar so‘zim. T. 2013.
11. Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi. T. “Fan”, 1995.
12. Istoriya Uzbekistana. Tom III. (XVI pervaya polovina XIX v) kompleksiv avtorom. T. “Fan”, 1993.\
13. Hofiz Tanish al-Buxoriy. “Abdullanoma”. Birinchi kitob. Toshkent.: “Sharq”, 1999, 2000.
14. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. T.: 2001.
15. O‘zbekiston tarixi. 1-qism. II nashri (mas’ul muharirlar. A.Sagdullaev, B.Eshov) T. Universitet, 1999